
Viloyat hokimligida Qo'shtepa tumanini o'rganish natijalari bo'yicha yig'ilish o'tkazildi

Viloyat hokimligi binosi katta majlislar zalida Respublika ishchi guruhi tomonidan joriy yilning 11-19 iyun kunlari davomida Qo'shtepa tumanida ijtimoiy-ma'naviy vaziyat va aholining yashash sharoitlarini o'rganish natijalari bo'yicha yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda o'rganish natijalari tanqidiy tahlil qilinib, mazkur hududni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha bir qator muhokamalar o'tkazildi. Majlisni viloyat hokimi Shuhrat G'aniev olib bordi.

Eslatib o'tamiz, ishchi guruhlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchilari, vazirlik va idoralar, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari, nodavlat notijorat tashkilot rahbarlari boshchilik qilgan holda Qo'shtepa tumanining 51 ta mahalla fuqarolar yig'inlarida faoliyat olib bordilar.

Qo'shtepa tumanida 37 ming 120 ta xonadonlarda 182 ming 49 nafar fuqaro istiqomat qilib, ishchi guruh a'zolari tomonidan 29 ming 489 ta (79,4 %) xonadonlarga kirib chiqildi. O'rganish jarayonida turli yo'nalishlarda 7 ming 898 ta muammolar aniqlandi.

Aniqlangan muammolarning 6 399 tasi yoki umumiy murojaatlarning 81 foizi bartaraf etildi. Qolgan qismi ishlab chiqilgan yo'l xaritalari hamda reja asosida tez orada barataraf etilishi belgilab olindi.

Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchilari U.Ismoilov hamda R.Kamilov o'rganish natijalari bo'yicha ma'ruza qildilar.

Shuningdek, ushbu yig'ilishda Xalq deputatlari Qo'shtepa tumanining navbatdan tashqari 50- sessiyasi ham bo'lib o'tdi. Unda asosiy masala davlatimiz rahbarining 12-13 iyun kunlari Farg'ona viloyatiga tashrifi davomida belgilab berilgan vazifalar yuzasidan bo'ldi hamda deputatlar tomonidan 4 ta sektor rahbarlarining 2018 yil 1-choragi davomida olib borgan faoliyatlari baholanib, bir qator vazifalar belgilab olindi.



